

SHAXSGA YO'NALITIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM JARAYONIGA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xudoyqulova Nilufar Quchqarovna

Turon universiteti 2-kurs magistranti e-mail: nilufarx1979@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va ularni amaliyotga tatbiq etishning metodik asoslari tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida shaxs omiliga e'tiborning ortib borishi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, ijodkorlik va mustaqillikni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni takomillashtirish yo'llari bo'yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, metodika, refleksiya, motivatsiya.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ta'lim jarayonining markazida endilikda talaba turadi, o'qituvchi esa yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va ijodiy hamkor sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari talabani har tomonlama rivojlantirishga, uning tafakkuri, qobiliyatlari va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar jamiyatning innovatsion taraqqiyoti, axborot oqimlarining keskin ortishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim standartlariga chuqur joriy etilishi fonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishning takomillashuvi ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Asosiy qism. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi XX asrning oxirlarida G'arb pedagogikasida keng rivojlandi. Ushbu yondashuvda ta'limning asosiy maqsadi - talabani shaxs sifatida shakllantirish, uning individualligini rivojlantirish, ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirokini ta'minlashdir. Bu yo'nalishning nazariy asoslari J. Dyui, K. Rodjers, A. Maslou kabi psixolog va pedagoglarning ishlarida o'z aksini topgan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyillari - o'quvchining subyekt sifatida faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash, o'quv maqsadlarini individuallashtirish, hamkorlikda ta'lim olishga sharoit yaratish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish - o'qituvchining an'anaviy nazorat qiluvchi roldan yo'naltiruvchi, maslahatchi va fasilitator roliga o'tishini talab qiladi. Shu jihatdan, pedagogik jarayonning markazida bilim berish emas, balki bilim olishga yo'naltirilgan jarayonni boshqarish tamoyili ustuvorlik kasb etadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ham bu yondashuv so'nggi yillarda keng qo'llanilmoqda. Davlat ta'lim standartlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning joriy etilishi - shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy ifodasidir. Endilikda bilim emas, balki uni

amaliyotda qo'llash ko'nikmalari asosiy o'ringa chiqmoqda. Bu esa o'qituvchilardan yangicha fikrlashni, dars jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Mazkur texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishning o'ziga xos jihatlaridan biri - o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirishdir. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlashtirish sur'ati, bilish tajribasi, ijtimoiy-psixologik holati va individual rivojlanish imkoniyatlari batafsil o'rganiladi. Natijada har bir o'quvchi uchun turli darajadagi topshiriqlar, ijodiy vazifalar, mustaqil izlanishlar va loyihaviy faoliyat turlari taklif etiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

1. O'qituvchi tomonidan individual ta'lim rejalari ishlab chiqilishi;
2. Talabalarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish;
3. Interaktiv metodlardan – “Aqliy hujum”, “Fishbone”, “Insert”, “Loyiha” texnologiyalaridan foydalanish;
4. Ta'lim jarayonida refleksiya, tahlil va o'z-o'zini baholash usullarini qo'llash;
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish.

Ushbu metodikalar yordamida talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, tanqidiy qarash va ijodiy yondashuv ko'nikmalari rivojlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir muhim jihati - talaba faoliyatiga ijobiy motivatsiya yaratishdir. Bu jarayonda o'qituvchi o'z darslarini faqat ma'lumot berish bilan cheklamasligi, balki talabaning shaxsiy ishtirokini ta'minlashi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchidan yuqori darajada kasbiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik hamda pedagogik psixologiya bo'yicha chuqur bilim talab etiladi. Chunki o'qituvchi o'quvchining motivatsion holatini aniqlay olishi, o'quv vaziyatlarini tahlil qilishga yo'naltira olishi, refleksiya jarayonini boshqara olishi lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining faolligi, mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish - ushbu texnologiyalarning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi: bilimning mustahkamlanishi, talabaning o'z kuchiga ishonchi ortishi, mustaqil ishlashga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'lishi va ijodiy faoliyatni rivojlantirish. Shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlikka asoslangan pedagogik muhit shakllanadi.

Metodikani yanada takomillashtirish uchun ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy baholash tizimini to'liq joriy etish, raqamli platformalar orqali individual rivojlanish monitoringini yo'lga qo'yish, o'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fanlar kesimida integratsiyalashgan darslarni joriy etish ham shaxsga yo'naltirilgan yondashuv samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish - ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Bu metodika orqali talaba shaxsining ichki imkoniyatlari ochiladi, uning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va ijodkorlik salohiyati rivojlanadi. O'qituvchi o'z faoliyatida talabani subyekt sifatida ko'rib, unga bilim emas, balki bilim olish yo'lini

o'rgatadi. Natijada, ta'lim tizimi zamonaviy, innovatsion va insonparvar yo'nalishda rivojlanadi.

Kelgusida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni yanada takomillashtirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba-sinov loyihalari hamda raqamli ta'lim platformalari asosida yangi metodik modellarni ishlab chiqish zarur. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, raqobatbardosh, fikrlovchi va ijtimoiy mas'ul shaxslarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PQ-5847-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4545884>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son (2020 yil 6 noyabr) Qarori // <https://lex.uz/docs/5085887>.

3. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Diss. ...ped fan. dok. (DSc). -T.: 2017.

4. Гулакова М. В., Харченко Г. И. Интерактивные методы обучения в вузе как педагогическая инновация // Концепт. - 2013. - № 11 (ноябрь). - ART 13219. -0,4 п. л. - URL: <http://e-koncept.ru/2013/13219.htm>.

5. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., Turayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T.: Sano standart, 2015. -8-b.

6. Sultanov X.E. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik ta'lim innovatsion klasterining zaruriyati // "Zamo naviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2020. №8. - B. 16-23.

7. Yaxshiyeva. Historical reality and its artistic interpretation. Neuroquantoiology | november, 2022/11. 2510-2513.India.

8. Y.Z. Rashidovna. Activities Of Female Scientists, Scholars In The Research Of Timur Studies: Chronology And Education. Ustozlar uchun 1 (1), 217-220.2025.

9. Y.Z. Rashidovna. .Ingliz Va O'zbek Temurshunosligi Tadriji Va Taraqqiyoti. Hamkor konferensiyalar 1 (14), 1124-1127.2025.

10. Z Yaxshiyeva. Amir Temur Istilolari: Qarashlar, Izlanishlar Va Yondashuvlar. tamaddun nuri jurnali 2 (65), 338-342.2025.

11. YZ Rashidovna. S Tudies Of The Image Tamurlaine In The Field Of Russian Oriental Studies. scientific approach to the modern education system 3 (32), 4-6. 2025.

12. Aliqulova D.B. Expression Of Sentimentalism In The Works Of Olmas Umarbekov. International Journal of Artificial Intelligence. (2025).

13. Aliqulova D.B. Reflection of the national vision of the world in phraseological units. Linguistics and Culture Review, 5(S2), 1281-1290. <https://doi.org/10.21744/lingcure.v5nS2.1799> (2021).
14. Aliqulova D.B. F.Dyushen ijodida ayol obrazi tasviri. «Sharq-u G'arb: Navoiv va Gyote» mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari (2023).
15. Драматическая мистерия Байрона “Каин” (по мотивам Библии и Корана). Международная заочная научная конференция. Современная филология. (Апрел -2011. г. Уфа 100-103 стр).
16. “Руссо и Байрон”. Молодой учёный Ежемесячный научный журнал. (№8 (19) Том II 2010 г, г. Чита. Стр 65-67).
17. The portrait of the image of Manfred in the translation of J.G. Byron's poem “manfred” “Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnal. (2025-yil, iyun, №6-son (953-957)).
18. G.G.Bayronning “Manfred” poemasi tarjimasida Manfred obrazining qayta yaratilishi. The re-creation of the character of Manfred in the translation of G.G.Byron's poem “Manfred” . TURON SCIENCES ilmiy jurnali. 2024-yil 1 –son, (35-40).
19. СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДРАМ «КАИН» ДЖ. БАЙРОНА И «МЯТЕЖ ЧЕРТА ПРОТИВ БОГА» А. ФИТРАТА. Гуманитарные науки. Филология и искусствоведение. УДК 821.512.133 2012-yil ,(262-267).
20. Ж.Байроннинг “Шилйон тутқини” поэмаси таржимасида вазн, ритм ўзгаришлари Тил ва адабиёт таълими. Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазирлигининг илмий-методик журнали (2014), (45-47).